

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GENDER BELGILI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O'RGANISH MEZONLARI

X.Sh.Gafforov,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarda namoyon bo'ladiigan gender xususiyatlarni bir qator mezonlar orqali tahlil qilinadi. Bugungi kunda olib borilayotgan tadqiqotlarni tahlil qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy tilshunoslik sohasida gender til madaniyati tushunchasi sifatida ko'rsatilmoqda va uni ingliz hamda o'zbek tillari frazeologik birliklari materiallarida gender stereotiplarini shakllantiruvchi asos sifatida tavsiflanmoqda

Kalit so'zlar: gender belgili frazeologik birlik, grammatik mezon, morfologik mezon, leksik mezon, semantik mezon, gender stereotip, erkak stereotiplar, ayol stereotiplar.

Gender tushunchasining mazmunini til tuzilmalarini tahlil qilish orqali ochish mumkin, bu jinsning madaniy ifodasini lingvistik o'rganish zarurligini tushuntiradi, shu sababdan u shunchaki lingvistik kategoriya emas. L.Gordonning qarashlariga ko'ra, gender jamiyat ijtimoiy tuzilishining asosiy o'chovidir. Tilshunoslarning turli nuqtai nazarlarini taqqoslab, biz jinsn ni ma'lum bir jinsga mansublik bilan bog'liq holda til vositalarida va odamlarning nutq faoliyati xususiyatlarida namoyon bo'ladigan kognitiv xarakterdagi tushuncha yoki hodisa sifatida aniqlash mumkin.¹

O'rganilayotgan tillarning umumiyligi frazeologik fondidan faqat gender belgisi bo'lgan frazeologik birliklarni tanlash maqsadida biz ingliz va o'zbek tillarida gender belgili frazeologik birliklarni tanlashda quyidagi mezonlarni taklif qilamiz:

1. Grammatik mezon. Ingliz tilida ***he*** (u), ***she*** (u), ***his/her*** (uning) ***him*** (unga), ***her*** (unga) shaxs olmoshli frazeologik birliklarni gender xususiyatli qiladi.

¹ Gordon L. (1990). Gender and Higher Education in in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press. P.258.

Misol uchun: *His Majesty's servants* -aktyorlar; *he is so dumb you can sell him the Brooklyn Bridge* – u mutlaqo ahmoqdir. Biroq, ingliz tilidagi *he* shaxs olmoshili ko‘pgina maqollarda genderni neytrallash hodisasi mavjud bo‘lib, bunday maqollarni ayollarga nisbatan qo‘llash mumkin: *he laughs best who laughs last* – oxirgi kulgan odam yaxshi kuladi. Bu ingliz tili grammatikasida androsentrizmda namoyon bo‘ladigan narsa, ya’ni hodisadir. O‘zbek tilida frazeologik iboralarning gender bo‘yog’ini grammatik mezon yordamida aniqlash qiyin, chunki unda muayyan jinsni ko‘rsatuvchi olmoshlar mavjud emas.

2. Morfologik mezon, birinchi navbatda, ingliz frazeologik birliklari tarkibida erkak jinsni bildiruvchi *-er* va – (qo‘sishimchasiz) yoki qo‘sishimchalarining mazmuniga, ayol jinsini ko‘rsatuvchi *-ess* qo‘sishimchasiga tayanadi: *stock actor* - aktyor, -ma'lum bir teatrning doimiy truppassi tarkibiga kiruvchi aktyor; *meddling duchess* - buyruk berishni yaxshi ko‘radigan, lekin o‘zi hech narsa qilmaydigan gavjum xonim.. Ammo *-er* va – qo‘sishimchali komponentni o‘z ichiga olgan inglizcha frazeologik iboralarning hammasi ham male (erkak jinsi)ni bildirmaydi. Bu qo‘sishimchalar ba’zan ayolni ham anglatishi mumkin: *high kicker* - o‘yin-kulgini yaxshi ko‘radigan beparvo qiz; *cradle robber* – o‘zidan ancha yoshroq odamga turmushga chiqqan ayol.

3. Ingliz va o‘zbek tillarida gender xususiyatlari frazeologik iboralarni ajratib olishning **leksik mezonini** quyidagi gender indekslangan komponentlar tarkibiga qarab aniqlash mumkin:

a) Atoqli otlar, ya’ni erkak va ayol ismlari: Xo‘ja Ahrorning moli – bu narsalar Xoja Ahrorga tegishli (ya’ni, boshqa birovga tegishli bo‘lmagan narsalar); kichik Stepanik - xodim.

b) Muayyan jinsni bildiruvchi ot, gender belgili leksemalar: payg’ambar yoshi – Muhammad payg’ambarning yoshi (ya’ni, 63 yosh); oppoq qiz -shirin qiz (qizga odobli murojaat); kampir - ona, yoshi kata ayol.

v) jinsi ko‘rsatilgan qarindoshlik atamalari: oppoq dada - bobo; katta onam – buvi

4. Gender belgili frazeologik birliklarni tanlashning **semantik mezoni** eng qiyindir, chunki ingliz va o‘zbek frazeologiyasida komponent tarkibiga ko‘ra jinsi

belgilanmagan birliklar juda ko‘p, ammo bu komponentlarning umumiy ma’nosiga murojaat qilsak, shuni bilishimiz mumkinki, ular erkak jinsini ham, ayol jinsini ham bildiradi. O‘zbek frazeologiyasini ko‘rib chiqamiz: ***boshi qorong’i*** -homilador (homiladorlikning birinchi davrida). Bu frazeologik birlikni alohida komponentlarga ajratadigan bo‘lsak, bosh va qorong’i leksemalarini olishimiz mumkin. Bu leksemalar alohida tarzda hech qanday jinsn belgilamaydi, lekin ular birgalikda homiladorlikning dastlabki davridagi ayol jinsiga xos frazeologik birlikni hosil qiladi. Ingliz frazeologiyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, ***lounge lizard*** - ishyoqmas odam, shuningdek, jins komponentini o‘z ichiga oladi: ***lounge*** - dam olish va o‘yin-kulgi uchun joy, ***lizard*** - hayvon (kaltakesak). Ular birgalikda ma’lum bir mashg’ulot bilan shug’ullanmaydigan va ko‘ngilochar klublar va barlarda vaqt o‘tkazishni yaxshi ko‘radigan odamni anglatadi. Shunday qilib, gender belgili frazeologik birliklarni tanlash uchun sanab o‘tilgan mezonlarning har biri muayyan o‘zgarishlar yoki istisnolarga imkon beradi. Shuning uchun ma’lum bir frazeologik birlikning semantikasida ko‘rsatilgan gender xususiyatni aniq belgilash uchun barcha mezonlar birgalikda qo‘llanilishi kerak. Ingliz va o‘zbek frazeologiyasi materiallarida uchraydigan gender stereotiplari quyidagilarga bo‘linadi: 1) erkak stereotiplar; 2) ayol stereotiplar.²

Gender stereotipi til tizimi darajasida ishlaydi, gender tushunchasiga kelsak, u gender stereotipiga qaraganda ancha kengroq ifodalanadi. Gender tushunchasi leksik-frazeologik darajada va butun matnlar darajasida aktuallashtirilishi mumkin. Gender tushunchasi har doim ham gender stereotipiga to‘g’ri kelavermaydi, aksincha, zamonaviy ingliz va o‘zbek tillarida gender stereotiplari va gender tushunchalari o‘rtasida ma’lum bir tafovut ham mavjuddir. Jamiyat rivojlanib borar ekan, odamlarning erkak va ayolning mavjud yoki ilgari mavjud bo‘lgan modellari haqidagi stereotipik qarashlari o‘zgaradi va bu o‘zgarishlar har doim ham o‘z vaqtida qayd etilib, tilda, xususan, leksikografik manbalarda aks ettirilmaydi.³

² Gordon L. Gender and Higher Education in in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press, 1990 - P.137.

³ Jespersen J. (1998). The woman / the feminist critique of language / ed. by D. Cameron. L. 1998. – P. 307.

Gender xususiyatlar o‘zining namoyon qilayotgan belgilariga monand bir qancha guruh va turlarga bo‘linadi. Ingliz tilidagi gender xususiyatli iboralarni tahlil qilish bizga quyidagi semantik tasnifni yaratishga imkon beradi:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gordon L. (1990). Gender and Higher Education in in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press. -278 p.
2. Gordon L. Gender and Higher Education in in the Progressive Era. New Haven, London: Yale University Press, 1990 – 187 p.
3. Jespersen J. (1998). The woman / the feminist critique of language / ed. by D. Cameron. L. 1998. –352 p.
4. Искандарова III. Ўзбек нутқ одатининг мuloқот шакллари. Фил.фантлари номз.дисс.автореферати. Самарқанд, 1993. 19-бет.
5. Искандарова, III. М. Узбек тили лексикаси мазмуни майдон сифатида (шахс микромайдони): Автореф. дисс... докт. филол. наук. — Тошкент, 1999; Расулова М. И.. Проблемы лексической категоризации в лингвистике: Дисс. ... докт. филол. наук. — Ташкент, 1999.